


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019 yil yanvar-fevral)

2019 yil yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, respublikada tashqi savdo aylanmasi 124,5 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20,7 %ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 67,9 mln. AQSh dollarga va import hajmi 56,6 mln. AQSh dollariga etdi. Tashqi savdo saldosи 11,3 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.


Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi

(mln. AQSh dollar)



Joriy yilning yanvar-fevral oylarida, respublika tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 36,0% ni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,7 % ni tashkil qilgan, boshqa davlatlarning ulushi esa 64,0% bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 35,9% ga oshgan. Shuningdek, eksport hajmida MDH davlatlari 53,0 %ni, boshqa davlatlar 47,0%ni va import hajmida MDH davlatlari 15,6 %ni, boshqa davlatlar 84,4%ni tashkil qildi.

**2019 yil yanva-fevral oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida
MDH va boshqa davlatlarning ulushi
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)**



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning fevral oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, yanvar oyiga nisbatan 0,8 mln. AQSh dollarga kamroq eksport qilindi va 33,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Tovar va xizmatlar importi hajmi esa 25,0 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lib, bu esa yanvar oyiga nisbatan 6,5 mln. AQSh dollariga kamroqdir.

2019 yil yanvar-fevral oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi qo`yidagicha ko`rinish olgan:

**Respublika tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega davlatlar**

(mln. AQSh dollar)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o'sish sur'ati, %
Xitoy	33,8	13,7	20,1	27,2	108,7
Rossiya	30,2	25,4	4,8	24,3	97,7
Turkiya	16,3	9,9	6,4	13,1	110,1
Qozog'iston	11,2	8,6	2,6	9,0	96,5

(mln. AQSh dollar)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o'sish sur'ati, %
Koreya Respublikasi	7,8	2,3	5,5	6,3	11,1 b.
Buyuk Britaniya	7,2	-	7,2	5,7	12,0 b.
Latviya	4,1	3,9	0,2	3,3	107,9
Litva	1,9	-	1,9	1,5	9,5 b.
Estoniya	1,4	0,7	0,7	1,1	2,8 b.
Turkmaniston	1,3	0,1	1,2	1,0	4,3 b.
Qirg'iziston	1,0	1,0	-	0,8	166,7
Germaniya	1,0	-	1,0	0,8	2,0 b.
Vietnam	0,9	-	0,9	0,7	180,0

Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 36,0 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,7 % ni tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018 yilning yanvar-fevral oylarida 56,8 %ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 64,0 % ga etdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining ayrim hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi

(mln.AQSh dollar)

Davlat nomi	2017 yil yanvar-fevral	2018 yil yanvar-fevral	2019 yil yanvar-fevral
Xitoy	38,6	31,1	33,8


Davlat nomi	2017 yil yanvar-fevral	2018 yil yanvar-fevral	2019 yil yanvar-fevral
eksport	35,0	22,8	13,7
import	3,6	8,1	20,1
saldo	31,4	14,5	-6,4
Rossiya	14,6	30,9	30,2
eksport	9,7	21,8	25,5
import	4,9	9,1	4,7
saldo	4,8	12,7	20,8
Turkiya	21,8	14,8	16,3
eksport	18,4	13,9	9,9
import	3,4	0,9	6,4
saldo	15,0	13,0	3,5
Qozog'iston	5,1	11,6	11,2
eksport	5,0	9,2	8,6
import	0,1	2,4	2,6
saldo	4,9	6,8	6,0
Koreya Respublikasi	2,5	0,7	7,8
eksport	0,1	0,2	2,3
import	2,4	0,5	5,5
saldo	-2,3	-0,3	-3,2
Buyuk Britaniya	0,2	0,6	7,2
eksport	-	-	-
import	0,2	0,6	7,2
saldo	-0,2	-0,6	-7,2
Latviya	8,1	3,8	4,1
eksport	8,0	3,7	3,9
import	0,1	0,1	0,2

Davlat nomi	2017 yil yanvar-fevral	2018 yil yanvar-fevral	2019 yil yanvar-fevral
saldo	7,9	3,6	3,7
Litva	0,2	0,2	1,9
eksport	-	-	-
import	0,2	0,2	1,9
saldo	-0,2	-0,2	-1,9
Estoniya	-	0,5	1,4
eksport	-	0,5	0,7
import	-	-	0,7
saldo	-	0,5	0,0
Turkmaniston	-	0,3	1,3
eksport	-	-	0,1
import	-	0,3	1,2
saldo	-	-0,3	-1,1
Qirg'iziston	1,0	0,6	1,0
eksport	1,0	0,6	1,0
import	-	-	-
saldo	1,0	0,6	1,0
Germaniya	0,4	0,5	1,0
eksport	-	-	-
import	0,4	0,5	1,0
saldo	-0,4	-0,5	-1,0
Vietnam	-	0,5	0,9
eksport	-	0,2	-
import	-	0,3	0,9
saldo	-	-0,1	-0,9


EKSPORT

2019 yil yanvar-fevral oylarida eksport hajmi 67,9 mln. AQSh dollarga teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 99,6 % ulushga ega, bular asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (87,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari (5,3 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Tovar va hizmatlar eksporti tarkibi
(mln.AQSh dollar)**



Tovar va xizmatlar eksporti ulushi (%)



Eksport tarkibi


	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Eksport	67,9	90,3	100,0	36,0	111,5	100,0	31,9	74,4	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	3,6	78,6	5,3	0,9	75,0	2,5	2,7	79,4	8,5
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	59,1	88,8	87,0	33,6	112,4	93,3	25,5	69,7	79,9
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	1,8	134,7	2,7	0,8	2,7 b.	2,2	1,0	90,9	3,1
Mashina va asbob-uskunalar	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Xizmatlar	0,2	139,0	0,4	0,2	100,0	0,6	-	-	-
Boshqalar	3,1	122,6	4,5	0,4	57,1	1,1	2,7	150,0	8,5

Xizmatlar eksporti hajmi 0,3 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,4 %ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 139,0 %ga o'sganligi kuzatildi.


Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (48,4 %), safarlar (40,3 %) va transport xizmatlari (9,5 %) hissasiga to'g'ri keladi.

Xizmatlar eksporti tarkibi, (%)

2018 yil



2019 yil




Transport xizmatlari
 Safarlar

Boshqalar
 Moliyaviy xizmatlar


Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahviliga ko'ra, 2019 yilning fevral oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, yanvar oyiga nisbatan 0,8 mln. AQSh dollariga kam eksport qilindi va 33,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa 0,3 mln. AQSh dollarga etgan.

Respublika eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi (yanvar-fevral)

2018 YIL



2019 YIL



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Xitoy, Turkiya va Rossiya Federatsiyasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 72,4 % ini tashkil qiladi. Xitoy, Turkiya va Rossiya Federatsiyasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**Qoraqalpog'iston Respublikasining
asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi**

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, %		O'rni	
	2018 yanvar-fevral	2019 yanvar-fevral	2018 yanvar-fevral	2019 yanvar-fevral	2018 yanvar-fevral	2019 yanvar-fevral
Rossiya	21,8	25,5	29,0	37,5	2	1
Xitoy	22,8	13,8	30,4	20,3	1	2
Turkiya	13,9	9,9	18,5	14,6	3	3
Qozog'iston	9,2	8,6	12,3	12,7	4	4
Latviya	3,7	3,9	4,9	5,7	5	5
Koreya Respublikasi	0,2	2,3	0,2	3,5	8	6
Qirg'iziston	0,6	1,0	0,8	1,4	6	7
Estoniya	0,5	0,7	0,6	1,0	7	8
Turkmaniston	-	0,1	0,1	0,1	9	9
Germaniya	-	-	-	-	10	10
Litva	-	-	-	-	11	11

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019 yilning yanvar-fevral oylarida jami 2613,5 tonna meva-sabzavot mahsulotlari 1026,6 ming AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati – 67,5%). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019 yilning yanvar-fevral oylarida 2152,2 tonna sabzavotlar 589,3 ming AQSh dollariga eksport qilingan.

Shuningdek, 191,7 tonna meva va rezavorlar 189,5 ming AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 138,9 tonnaga oshgan.

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi




Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2019 yilning yanvar-fevral oylarida uzum va qovun- tarvuz eksport hajmi 247,2 ming AQSh dollariga etdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,3 barobarga o'sgan).

**Respublikamizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining
asosiy bozorlari eksport geografiyasi**


Davlat nomi	2018 yil yanvar-fevral			2019 yil yanvar-fevral		
	tonna	ming AQSh doll.	ulushi, %	tonna	ming AQSh doll.	ulushi, %
Qozog'iston	7299,2	1125,9	92,6	1564,8	763,5	59,9
Turkiya	-	-	-	387,0	50,6	14,8
Rossiya	62,6	41,7	0,8	270,3	66,3	10,3
Ruminiya	-	-	-	189,0	25,8	7,2
Turkmaniston	-	-	-	180,0	15,8	6,9
Bolgariya	-	-	-	22,5	104,7	0,9

**2019 yil yanvar-fevralida meva va sabzavot mahsulotlarining tarkibi
(umumiylajmiga nisbatan foiz hisobida)**

2018 yil




2019 yil




IMPORT

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida import hajmi 56,6 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,0 barobar o'sdi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (67,1 %), kimyo mahsulotlari va buyumlari (7,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari (5,9 %) va xizmatlar (4,8 %) guruhlari hisobiga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tarkibi
(ming AQSh dollarari)



Tovar va xizmatlar importi ulushi (%)



Import tarkibi


	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiylajmaga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiylajmaga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiylajmaga nisbatan, %
Import	56,6	2,0 b.	100,0	8,8	72,1	100,0	47,8	3,0 b.	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	3,3	2,2 b.	5,4	3,1	2,1 b.	35,2	0,2	2,0 b.	0,4
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	4,2	134,2	11,3	0,2	20,0	2,3	4,0	190,5	8,4
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	0,4	45,9	3,3	-	-	-	0,4	100,0	0,8
Qora va rangli metallar	0,5	42,8	4,4	-	-	-	0,5	125,0	1,0
Mashina va asbob-uskunalar	38,0	3,0 b.	44,6	1,5	2,1 b.	17,0	36,5	3,1 b.	76,4
Xizmatlar	2,7	3,5 b.	2,7	0,5	166,7	5,7	2,2	4,4 b.	4,6
Boshqalar	7,4	93,4	28,3	3,5	47,3	39,8	3,9	7,8 b.	8,2

**Qoraqalpog'iston Respublikasiga
asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi**


Davlat nomi	Min. AQSh doll.		Ulushi, %		O'rni	
	2018 yanvar-fevral	2019 yanvar-fevral	2018 yanvar-fevral	2019 yanvar-fevral	2018 yanvar-fevral	2019 yanvar-fevral
Xitoy	8,2	20,1	29,5	35,5	2	1
Buyuk Britaniya	0,6	7,2	2,1	12,6	5	2
Turkiya	0,9	6,5	3,2	11,4	4	3
Koreya Respublikasi	0,5	5,4	1,8	9,6	6	4
Rossiya	9,1	4,8	32,6	8,4	1	5
Qozog'iston	2,4	2,6	8,6	4,7	3	6
Litva	0,2	1,9	0,8	3,3	10	7
Turkmaniston	0,2	1,2	0,9	2,1	8	8
Germaniya	0,5	1,0	1,8	1,8	7	9
Vietnam	0,2	0,9	0,8	1,6	9	10
Eron	-	0,9	0,1	1,5	11	11
Estoniya	-	0,7	-	1,2	-	12

Xizmatlar importi tarkibi, (%)

2018 yil



2019 yil




- Moliyaviy xizmatlar
- Transport xizmatlari
- Texnik hizmat ko'ssatish va tamirlash xizmatlari
- Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar

Xizmatlar importi hajmi 2,7 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 4,8 %ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,5 karraga o'sdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa ish yuzasidagi xizmatlar (79,4 %) va texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari (12,6 %)dan iborat bo'ldi.

Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning o'tgan davri mobaynida respublikaga import qilinayotgan tovar va xizmatlar fevral oyida, yanvar oyiga nisbatan 6,5 mln. AQSh dollarga kam import qilingan bo'lib, shundan tovarlar 5,7 mln. AQSh dollarga kam import qilingan bo'lib, xizmatlar 0,8 mln. AQSh dollarga ko'p import qilingan.

Respublika importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi (yanvar-fevral)



2019 yilning yanvar-fevral oylarida respublikaga 44 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Buyuk Britaniya, Turkiya va Qozog'iston hamkor davlatlaridan jami import hajmi 46,5 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 82,2 %ini tashkil qiladi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilyotgan mashina va asbob-uskunalar, kimyo mahsulotlari va buyumlari hamda oziq-ovqat mahsulotlari asosan qaysi davlatlardan respublikamizga olib kirilayotganlini quyidagi sxemalardan ko'rish mumkin.

Mashina va usbob-uskunalar import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	XITOY	BUYUK BRITANIYA	TURKIYA	LITVA	KOREYA RESPUBLIKASI
MLN. AQSH DOLL.	19,4	6,6	3,0	1,6	1,3
O'TGAN YILGA NISBATAN, %	2,6 b.	46,9 b.	4,0 b.	9,5 b.	9,8 b.
ULUSHI, %	51,1	17,5	7,9	4,1	3,5

Kimyo mahsulotlari va buyumlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	KOREYA RESPUBLIKASI	ROSSIYA	XITOY	TURKIYA	ERON
MLN. AQSH DOLL.	2,4	0,2	0,2	0,5	0,4
O'TGAN YILGA NISBATAN, %	6,5 b.	29,3	86,1	4,7 b.	-
ULUSHI, %	55,6	4,0	4,2	10,8	10,4

Oziq-ovqat mahsulotlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	QOZOG'ISTON	ROSSIYA	TURKMANISTON	XITOY
MLN. AQSH DOLL.	2,2	0,6	0,3	0,2
O`TGAN YILGA NISBATAN, %	199,6	15,1 b.	-	120,2 b.
ULUSHI, %	65,0	18,3	9,2	6,1

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.